ARAB ADABIYOTIDA NAQO'ID JANRI

Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Arab adabiyotining o'ziga xos janrlaridan biri bo'lgan naqo'id janri o'z davri uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Umaviylar davrida rivoj topgan mazkur janrdan siyosiy bahslarda ham keng foydalanilgan. Mazkur maqolada naqo'id janrining kelib chiqishi, xususiyatlari hamda bu janrda ijod qilgan bir necha shoirlar faoliyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: arab adabiyoti, naqo'id, hajviya, munozara, satirik, Al-Axtal, Jarir, Al-Farazdaq.

Arab adabiyoti boy va qadimiy merosga ega bo'lib, o'ziga xos yo'nalish va uslubi bilan alohida ajralib turadi. Arab adabiyoti bilan tanishar ekanmiz, turli-tuman janrlarga duch kelamiz. Arab adabiyoti xazinasidan o'rin egallagan mana shunday beqiyos janrlardan biri bu maqo'id janri hisoblanadi.

Naqo'id janri ikki yoki undan ortiq shoirlar o'rtasida o'zaro hajviy she'rlar aytishuviga asoslanadi. Bunda shoirlar o'zaro she'riy duel tarzida bir-birining nasl-nasabi, shaxsiy fazilatlari va qavmini hajv qilib, munozaraviy tarzda bir-birlariga javob berganlar. Mazkur janr islomdan avvalgi johiliya davrida shakllangan bo'lsa-da, uning gullab-yashnagan davri Umaviylar davriga to'g'ri keladi. Dastlab naqo'id janri qabilalararo raqobatning bir qismi bo'lib, shoirlar bu orqali o'z qabilalari sharafini ulug'lab, o'zga qabilallarni kamsitganlar. Biroq, Umaviylar davriga kelib ushbu janr birmuncha rivojlandi. Endilikda bu janr faqat qabilaviy emas, balki shaxsiy she'riy duel shakliga kirib, hatto siyosiy kurash vositasiga ham aylandi.

Naqo'id janrining xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, unga ko'ra ikki yoki bir nechta shoir she'rlar orqali bir-birini tanqid qiladi yoki mazax qiladi. Raqib

shoir o‘zidan oldingi shoirning she’riga vazn va ohang jihatdan mos kelgan holda javob qaytarishi muhim shartlardan biri hisoblangan. She’rlar mohiyati satirik mazmun kasb etgan.

Naqo’id janri o‘z davri uchun bir necha jihatdan ahamiyatli bo‘lgan. Avvalo, bu janr shoirlar o‘z iste’dodlarini namoyon qilishlarida ayni muddao bo‘lgan. Shuningdek, mazkur janrda yaratilgan asarlar orqali arab tilining jozibadorligi va badiiyligi oshib borgan. Bundan tashqari, qabilalar manfaatini himoya qilishda ham muhim rol o‘ynagan. Shuni ham ta’kidlash lozimki, Umaviylar davrida ushbu janrdan siyosiy bahslarda ham foydalanilgan.

Naqo’id janrida salmoqli ijod qilib, mashxurlikka erishgan shoirlar sifatida Al-Axtal, Jarir va Al-Farazdaq uchligini ko‘rsatish mumkin. Bu shoirlar bir-birlari bilan yillar davomida naqo’id she’rlari orqali bahslashgan.

“Umaviylar shoiri” nomini olgan Al-Axtal 640-710-yillarda yashab o‘tgan bo‘lib, tag‘lib nomli nasroniy qabila vakili hisoblanagan. Umaviylar sulolasining vakillari uning qasidalarida vazmin va qat’iyatli, sahiy va muloyim so‘zlovchi hukmdorlar, islom dinining ashaddiy kurashchilari va Allohning sodiq bandalari sifatida ifodalangan.[1] Shoir naqo’id janrida mahorat bilan foydalanib, samarali ijod qilgan. Mazkur janrga asoslangan munozaraviy aytishuvlar al-Axtal bilan tag‘libiylarning abadiy raqibi Qays aylan qabilasining ittifoqchisi bo‘lgan tamim qabilasining shoiri Jarir o‘rtasida yuz bergan.

Yuqoridagi uchlikning eng kuchlisi deya tan olingan Jarir Banu Tamim qabilasidan bo‘lib, 653-733-yillarda yashab o‘tgan. Jarirning hajviy she’rlari zamondoshlari orasida alohida muvaffaqiyat qozongan.U o‘z raqiblariga, jumladan al-Axtal va al-Farazdaqqa nisbatan she’riy bahslarda tengsiz bo‘lgan. U raqibining hajviy she’rini biroz to‘ldirib, muallifning o‘ziga qarshi qarata olish qobiliyatiga ega bo‘lgan.

Naqo’id janrining yana bir namoyandasi Al-Farazdaq sanalib, 641-732-yillarda yashab o‘tgan hamda Banu Tamim qabilasidan bo‘lgan. Al-Farazdaqning

[1] Ziyavuddinova M. Mumtoz arab adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. TDSHI. Toshkent-2012. 53-b.

she’riyatdagi keskin raqibi Jarir edi. Al-Farazdaq hajviyalarida qabiladagi o‘z urug‘ini behad maqtash ustunlik qiladi. Uning o‘zini maqtashlari nihoyatda balandparvoz, og‘ir va bir xildir. Shoir odatda o‘zining kelib chiqishi haqida batafsil to‘xtalib, o‘z qabiladoshlarining jasurligi, sahiyligi va aql-farosatini maqtagan, so‘ngra dushmanlarining ustidan kulishga o‘tgan.

Naqo’id janri Umaviylar davrida taraqqiy etgan bo‘lsa, Abbosiylar davrida asta-sekin o‘z ahamiyatini yo‘qota boshladi. Bu davrda falsafiy va ilmiy asarlarga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Shunga qaramay, naqo’id janri arab adabiyoti tarixida muhim she’riy janrlar qatoridan o‘rin oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mumtoz arab adabiyoti. Ziyavuddinova M. O‘quv qo‘llanma. TDSHI. Toshkent-2012. 53-b.
2. A literary history of the Arabs. Raynold Nicholsen. New York. 2002.